



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## WEB ASOSIDA TASHKIL ETILGAN TA'LIM JARAYONIGA DOIR O'QITUVCHILARNING QARASHLARI

**Qudratov Shahzod**

*Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

*e-mail: shahzod100997@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda veb asosli o'qitishga (WAO – Web-Asosli O'qitish) nisbatan o'qituvchilarning qarashlari, tajribalari va bu uslubga bo'lgan yondashuvlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning WAOga nisbatan fikr va mulohazalari chuqur o'r ganildi. Shu maqsadda to'plangan ma'lumotlar sifat tahlili doirasida, aniqrog'i – mazmuniy tahlil (content analysis) usuli orqali tahlil qilindi. Bu uslub o'qituvchilarning fikrlarini mavzular bo'yicha guruhlash, takrorlanuvchi mazmunlarni aniqlash hamda chuqur semantik anglash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'qituvchilar WAO uslubini zamonaviy ta'limgarayonida muhim va foydali yondashuv deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu model darslarni yanada interaktiv, talaba markazli va qulay tarzda tashkil etish imkonini beradi. Biroq, shunga qaramay, o'qituvchilarning ko'pchiligi veb asosli o'qitishga to'laqonli integratsiya bo'lishi uchun ularning texnologik savodxonligi, metodik tayyorgarligi hamda amaliy ko'nikmalari yetarli darajada emasligini qayd etishgan. Ularning bir qismi yangi texnologiyalarni qo'llashda qiyinalishlarini, ba'zida dars sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi texnik muammolar bilan to'qnash kelayotganliklarini bildirganlar. Shuningdek, veb platformalar orqali samarali baholash, o'quvchini faol ishtirotga jalb qilish va bilimni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirish bo'yicha metodik yordam va treninglarga ehtiyoj borligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Web, veb asosidagi o'qitish, suhbat.

### **Kirish**

Internet tarmog'idan foydalilaniladigan telekonferensiyalar, an'anaviy pochta o'rnini bosayotgan elektron pochta xabarları, bosma manbalarga alternativ bo'layotgan elektron kitoblar va davriy nashrlar - bularning barchasi internet asosidagi masofaviy ta'limgarayonida (IAMT) vositalaridan hisoblanadi.

Web asosidagi o'qitish (WAO) jarayonida esa IAMT tarkibida qo'llanilaniladigan deyarli barcha texnologik vositalardan foydalilaniladi. Mazkur o'quv jarayonida ta'limgarayonida ta'lum mazmuniga kirish imkonini beruvchi veb sahifalar tuziladi, samarali va uzuksiz aloqa uchun elektron pochta ro'yxatlaridan foydalilaniladi, o'zaro interaktivlikni kuchaytirish maqsadida esa muhokama platformalari va onlayn suhbat dasturlariga tayaniladi [1].

WAO - bu internet texnologiyalari yordamida ma'lum bir dars dasturi yoki o'quv materiali turli hududlarda joylashgan shaxslar o'rtasida uzatiladigan ta'limgarayonida shaklidir. WAO





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- bu har qanday maqsad uchun oldindan rejalashtirilgan ta'lif-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishda veb texnologiyalaridan foydalanilgan holda shaxslarni o'qitish jarayonidir. VAOni oson kirish mumkin bo'lgan, moslashuvchan saqlash va ko'rsatish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, oddiy, ammo kuchli nashr qilish imkoniyatiga ega, shuningdek ko'p formatli axborot vositalarini o'z ichiga oladigan o'qitish modeli deb tariflaydi [2].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, WAO o'quvchiga o'z o'quv jarayonini mustaqil boshqarish imkoniyatini beruvchi erkin va moslashuvchan ta'lif muhitini taqdim etadi. Webdagi ilovalarda mavjud bo'lgan navigatsiya vositalari (ya'ni, sahifalararo harakatlanish imkoniyatlari) tufayli har bir foydalanuvchi o'ziga qulay tezlikda ta'lif olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa, ayniqsa, o'quvchilar uchun WAOni yanada jozibador holga keltiradi.

Elektron vosita sifatida tanilgan World Wide Web (WWW) to'liq ravishda an'anaviy sinf muhitining o'rnini bosolmasligi mumkin, biroq ta'lif sohasida bilim yetkazish va muloqotni ta'minlashdagi salohiyati inkor qilib bo'lmaydigan darajada kattadir. WWW orqali boy tarkibli veb sahifalardan foydalanib, turli o'quv muhitlarini shakllantirish mumkin. Bu esa pedagoglarga cheksiz bilim manbalaridan, ta'limiy vositalardan va samarali aloqa imkoniyatlaridan foydalanish imkonini yaratadi [3].

WEB-brauzerlar orqali onlayn kutubxonalar, jurnallar, ma'lumotlar bazasi kabi manbalar yordamida Web – bilimni yaratish, uzatish, saqlash, qayta ishlash va yana chaqirib olish bo'yicha samarali axborot boshqaruvi vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, veb muhitidagi elektron pochta, forumlar, suhbat xonalari kabi vositalar orqali turli joylardagi o'quvchilar va o'qituvchilar o'zaro aloqa o'rnatishlari, hamkorlikda ishlashlari mumkin.

Shuningdek, foydalanuvchilar veb dizayn vositalaridan foydalanib o'zlarining shaxsiy sahifalarini yaratishlari mumkin bo'lib, bu ularning ijodkorligini rivojlantiradi. Shu kabi imkoniyatlar Vebni samarali ta'lif va o'quv muhit sifatida shakllantiradi [4].

Web asosidagi o'qitish (WAO) yordamida audio, video, tasvir, grafik, matn, animatsiya kabi turli ko'rinishdagi axborot vositalari birgalikda mavzuni tushuntirish uchun birlashtiriladi. Bu esa o'quvchilarga ma'lumotni eshitish va ko'rish orqali o'zlashtirishga, mustaqil ravishda bilim izlashga, xatolardan saboq olishga va tajriba asosida o'rganishga imkon yaratadi.

Internetning WAO bilan uyg'unligi, ma'lumotning qayerda joylashganidan qat'i nazar, xohlagan shaxsga istalgan joydan kerakli axborotni olish imkonini beradi. Zhang va boshqalar ta'kidlashlaricha, WAO o'qituvchilarga ko'plab afzallikkarni taqdim etadi [5].

Birinchidan, WAO ta'lif materiallari bilan ishlashda katta tejash imkonini beradi. Ikkinchidan, kompyuter va internetga ega bo'lgan shaxslar istalgan joy va vaqtda axborotga kirish imkoniga ega bo'ladilar. Uchinchidan, server kompyuterlari orqali axborotni saqlash, himoyalash va boshqarish osonlashadi. WAOning ushbu afzallikkari turli tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Kompyuter yordamida o'qitishning mantiqiy davomi sifatida qaralayotgan veb asosidagi o'qitish (WAO) keng tarqagan sari, o'qituvchilarning an'anaviy sinfdagi dars uslubidan onlayn muhitda WAO materiallaridan foydalanishga bo'lgan moyilli ortib bormoqda. Shu





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sababli o‘qituvchilar o‘zlarining fan bo‘yicha bilimlarini va an’anaviy sharoitdagi dars o‘tish ko‘nikmalarini WAO muhitida ham rivojlantirishlari zarur [6].

Bu borada o‘qituvchilar va boshqa pedagogik xodimlarning fikrlarini aks ettiruvchi ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Vodanovich va Piotrowski tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda o‘qituvchilarning WAO va ta’limda internetdan foydalanishga nisbatan munosabatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 73,6% foizi internetdan o‘qitish maqsadida foydalanishni ijobjiy baholagan, 69,4% foizi esa internetni samarali ta’lim vositasi sifatida ko‘rgan. Shuningdek, tadqiqotda qatnashgan o‘qituvchilarning yarmiga yaqini o‘z darslarida internet va veb asosidagi ilovalardan foydalanganliklari aniqlangan [7].

Ward, Peters va Shelley olib borgan tadqiqotda esa onlayn, real vaqt rejimidagi va interaktiv ta’lim dasturida qatnashgan o‘qituvchilar va talabalar fikrlari o‘rganilgan. Ular dastur samaradorligi, an’anaviy ta’lim bilan solishtirilishi va o‘zaro interaktivlik imkoniyatlariga doir fikr bildirganlar. Tadqiqot natijasida o‘qituvchilar va talabalar ushbu dasturni samarali deb baholaganlar. Ta’lim sifati nuqtai nazaridan onlayn ta’lim va an’anaviy (yuzma-yuz) ta’lim ko‘rsatkichlari o‘rtacha teng deb topilgan. Shu bilan birga, interaktiv va real vaqt rejimida olib borilgan onlayn o‘qitish, asinxron (ya’ni, real vaqt dan mustaqil) olib boriladigan onlayn ta’limga nisbatan ko‘proq afzal ko‘rilgani aniqlangan [8].

Journell ham shunga o‘xshash tarzda WTO dasturining samaradorligini o‘rganish maqsadida bir guruh o‘qituvchi va 11 nafar o‘quvchi bilan suhbatlar o‘tkazgan. Ishtirokchilarning aksariyati WTOni sinfdagi an’anaviy ta’limga nisbatan bilim uzatish va bilimning mustahkamligi nuqtai nazaridan kuchliroq deb hisoblaganlar.

Boshqa tomonidan, Floyd, Hughes va Maydosz o‘tkazgan tadqiqotda WTODa qatnashgan talabalarning o‘quv natijalari, o‘quv muhitiga nisbatan munosabatlari va idrokleri an’anaviy ta’limda qatnashgan talabalar bilan solishtirilganda sezilarli farq qilmaganligi ta’kidlangan.

Seok, DaCosta, Kinsell va Tung tomonidan olib borilgan boshqa bir tadqiqotda talabalar va o‘qituvchilarning onlayn ta’lim dasturlariga nisbatan fikrlari tahlil qilingan. Bu dasturlar moslashuvchanlik, foydalanuvchi interfeysi, sahifalararo harakat (navigatsiya), texnik qo‘llab-quvvatlash, kurslarni boshqarish, muloqot, mazmun va o‘qitish dizayni kabi jihatlar bo‘yicha baholangan. Tadqiqot natijasida ishtirokchilarning veb asosidagi dasturlarga nisbatan ijobjiy munosabatda bo‘lganliklari aniqlangan. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning WTO dasturlariga talabalar bilan solishtirganda yanada ijobjiy qarashlari mavjud bo‘lib, bu qarashlarning ularning o‘qituvchilik tajribasi bilan musbat bog‘liqligi aniqlangan.

Soha adabiyotlari tahlil qilinganda veb asosidagi o‘qitish (WAO) atamasi o‘rniga ba’zan veb qo‘llovli o‘qitish (WQO) atamasidan ham foydalanilayotgani kuzatiladi. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotlarda WQO sarlavhasi ostida aynan VAOning mazmuni yoritilgan [9].

Kurtoğlu va Seferoğlu (tomonidan ULAKBİM – Ijtimoiy va Gumanitar Fanlar Ma’lumotlar Bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallarda 2011 yilda chop etilgan 59 ta maqola asosida olib borilgan mazmuniy tahlillar natijasida ushbu ikki atama ko‘pincha bir-birining o‘rnida, ya’ni sinonim tarzda ishlatilgani aniqlangan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Biroq, bu ikki tushuncha orasida ba’zi muhim farqlar mavjud. WAO butun o‘quv jarayonining to‘liq veb muhiti orqali olib borilishini ta’kidlaydi. Aksincha, WQO o‘qitishning barcha jihatlarini veb orqali tashkil etish emas, balki veb texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini qo’llab-quvvatlovchi faoliyatlarni amalga oshirishga urg‘u beradi [10].

Shu nuqtai nazardan, WQO ta’limni samarali qilish, chuqur va barqaror o‘rganishni ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quv muhitlarida kompyuter tarmoqlaridan foydalilanligan dastur sifatida ta’riflanadi. Bu dastur ayrim bog‘liq texnologiyalar orqali o‘qitishning muayyan qismini o‘quvchilarga yetkazadi.

WQO - bu an’naviy (yuzma-yuz) ta’lim davomida beriladigan topshiriq, mashq va faoliylarning veb muhitidagi interaktiv topshiriqlar bilan qo’llab-quvvatlanishini nazarda tutadi. Bunda yuzma-yuz ta’lim va onlayn ishlanmalar birgalikda olib boriladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim sohasida ham chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, pandemiya davrida butun dunyo bo‘ylab an’naviy o‘qitish shakllaridan voz kechishga va o‘rniga masofaviy ta’lim, ayniqsa veb asosidagi ta’lim jarayonlarini keng joriy etishga to‘g‘ri keldi. Bugungi kunda ushbu tajriba nafaqat davom ettirilmoqda, balki tobora takomillashtirilmoqda. O‘qituvchilar sifatida biz bu jarayonni yaqindan kuzatmoqdamiz, sinab ko‘rmoqdamiz va uning turli jihatlarini baholamoqdamiz.

Shaxsan men veb asosidagi ta’lim jarayonining asosiy afzalligi sifatida uning vaqt va makon chegaralarini bartaraf etishini ko‘rsatgan bo‘lardim. O‘qituvchi sifatida, o‘quvchilarim bilan dars vaqtida bog‘lanish imkoniyatidan tashqari, darsdan tashqari paytlarda ham muloqot qilishim, topshiriqlarni onlayn shaklda topshirish va tahlil qilishim mumkin bo‘ldi. Ayniqsa, resurslarga erkin kirish imkoniyati, video darslar, elektron darsliklar, forumlar va interaktiv platformalar ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirdi. Talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari ham rivojlanib bordi.

Biroq, Web asosidagi ta’limda faqat ijobjiy jihatlar mavjud deb bo‘lmaydi. O‘qituvchi sifatida men bir qator muammolarga ham duch keldim. Avvalo, barcha talabalar bir xil darajada texnik vositalar va internet tarmog‘iga ega emasligi sababli teng sharoitda ta’lim olish imkoniyati har doim ham ta’minlanmadni. Bu esa,adolat tamoyillarining buzilishiga olib keldi. Shuningdek, ayrim talabalar veb ta’limga befarq bo‘lishdi, ya’ni ular dars jarayonlarida faollik ko‘rsatmaslik, qatnashmaslik, topshiriqlarni kechikib topshirish holatlarini ko‘rsatishdi.

Web asosidagi ta’lim jarayonida o‘qituvchi zimmasiga tushadigan yuklama ham sezilarli darajada oshdi. An’naviy ta’limda faqatgina darsni o‘tish va uni tahlil qilish kifoya bo‘lsa, masofaviy ta’limda darsni oldindan yozib olish, texnik jihatdan uni platformaga yuklash, talabalar savollariga javob berish, baholash tizimini onlayn tarzda yuritish kabi qo‘srimcha vazifalar yuzaga keldi. Bu esa vaqtini va ruhiy kuchni ko‘proq talab qiladi.

Shuningdek, jonli muloqotning yo‘qligi, ya’ni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bevosita insoniy aloqa yo‘qolganligi sababli ta’lim jarayoni quruq va hissiy jihatdan sust kechdi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, dars jarayonida yuz ifodalari, tana harakatlari, tovush ohangi kabi omillar katta ahamiyatga ega. Bularning yo‘qligi esa o‘quvchilarning motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Web asosidagi ta’lim jarayoni zamонавија та’лимниң ажралмас қисмига айланган бо‘лса-да, уни то‘лиқ ва сamarали amalga oshirish uchun tizimli yondashuv, kuchli texnik infratuzilma, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi sifatida men bu ta’lim shaklini takomillashtirish tarafboriman, biroq uni an'anaviy ta’limni to‘liq almashtiruvchi model emas, balki unga qo‘shimcha sifatida qarash kerak, deb hisoblayman. Har ikkala tizimning eng yaxshi jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali haqiqiy sifatli va inklyuziv ta’limga erishish mumkin.

### **Xulosa**

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi veb asosida o‘qitish (WAO) va veb qo‘llovli o‘qitish (WQO) kabi yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki atama ko‘pincha sinonim tarzda qo‘llanilsa-da, ular mazmunan farqlidir. WAO - ta’limning barcha bosqichlari va mazmuni to‘liq veb muhiti orqali tashkil etiladigan model bo‘lsa, WQO - an'anaviy o‘qitishni veb texnologiyalar orqali qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shimcha o‘quv faoliyatlarini o‘z ichiga oladi.

WQO modeli o‘qituvchilarga dars jarayonini boyitish, o‘quvchilarda mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish, mashqlar, topshiriqlar va interaktiv resurslar orqali chuqur o‘zlashtirishni ta’minalash imkonini beradi. Ayniqsa, maktab o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsiya kompetentligini shakllantirishda WQO muhim o‘rin tutadi. Bu model o‘qituvchilarga nafaqat ta’lim mazmunini zamонавија texnologiyalar orqali yetkazish, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish va ularni faollikka undash imkonini yaratadi.

Shu sababli, maktab ta’limida WAO va WQO modellari bir-birini to‘ldiruvchi uslub sifatida qaralishi, ularni oqilona uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Clewley, R. J., Chen, S. Y., & Liu, X. (2011). Evaluation of adaptive web-based learning systems: A review. *Technology, Pedagogy and Education*, 20(3), 267–285.
2. Cüez, M. (2006). Web destekli Öğretim tasarımı. *Altunçekiç & Aksu (Der.)*, Eğitim Teknolojileri Kitabı, Ankara.
3. Faul, A. C., Frey, A. J., & Barber, R. (2004). The effects of web-assisted instruction in a social work research methods course. *Social Work Education*, 23(1), 105–118.
4. Floyd, D. L., Hughes, P., & Maydosz, A. S. (2011). Online vs. traditional course evaluation: Differences in student feedback. *The Journal of Educators Online*, 8(1), 1–11.
5. Hsu, L., Yeh, Y., & Yen, Y. (2009). Development of an attitude scale toward web-based learning. *Computers in Human Behavior*, 25(2), 207–213.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



6. Kearns, L. R., Shoaf, L., & Summey, H. (2006). Performance and satisfaction of second-degree BSN students in web-based and face-to-face learning environments. *Journal of Nursing Education*, 45(12), 547–553.
7. Kruse, K. (2009). The benefits and drawbacks of e-learning. *eLearning Industry Journal*.
8. Liaw, S. S. (2005). Investigating students' perceived satisfaction, behavioral intention, and effectiveness of e-learning: A case study of the Blackboard system. *Computers & Education*, 51(2), 864–873.
9. Mioduser, D., Nachmias, R., Lahav, O., & Oren, A. (2000). Web-based learning environments: Current pedagogical and technological state. *Journal of Research on Computing in Education*, 33(1), 55–76.
10. Seok, S., DaCosta, B., Kinsell, C., & Tung, C. (2010). Comparison of instructors' and students' perceptions of the effectiveness of online courses. *Quarterly Review of Distance Education*, 11(1), 25–36.

